



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



# Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **18 419** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1 523** taga yoki **7,6 %** ga kam. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **20,1** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-iyun oylarida **1 558** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **29,2 %** ga kam demakdir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2020-2024- yillar 1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



## 2024- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


## Tuman va shaharlar bo'yicha 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
4 228	Navoiy shahri	4 164
2 921	Karmana tumani	2 854
2 742	Qiziltepa tumani	2 540
2 411	Xatirchi tumani	2 146
2 131	Navbahor tumani	1 848
1 556	Zarafshon shahri	1 209
1 363	Nurota tumani	1 208
885	Konimex tumani	870
795	Uchquduq tumani	683
558	Tomdi tumani	498
352	G'ozg'on shahri	399

2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **18 419** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 558** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Navoiy shahrida **4 164** tani yoki jamiga nisbatan **22,6** % ni tashkil etdi.

## 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Tuman va shaharlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)\*

Tomdi	45,5
G'ozg'on sh.	43,6
Konimex	28,0
Navoiy sh.	25,6
Karmana	22,5
Qiziltepa	21,2
Uchquduq	19,6
Navbahor	18,8
Nurota	17,9
Xatirchi	13,6
Zarafshon sh	13,6

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- iyul holatiga, birlikda



2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **20,1** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan **1,4** birlikka oshgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida **45,5** birlik, G'ozg'on shahrida **43,6** birlik, Konimex tumanida **28,0** birlik, Navoiy shahrida **25,6** birlik va Karmana tumanida **22,5** birlikka yetdi.

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

## Eng yuqori ko'rsatkich



Tomdi tumani  
– 45,5 birlik.



## O'rta ko'rsatkich



Karmana tumani  
– 22,5 birlik.



## Eng past ko'rsatkich



Zarafshon shahri  
– 13,6 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida **45,5** birlik, G'ozg'on shahrida **43,6** birlik, Konimex tumanida **28,0** birlik, Navoiy shahrida **25,6** birlik, Karmana tumanida **22,5** birlik, Qiziltepa tumanida **21,2** birlik, Uchquduq tumanida **19,6** birlik, Navbahor tumanida **18,8** birlik, Nurota tumanida **17,9** birlik, Xatirchi tumanida **13,6** birlik hamda Zarafshon shahrida **13,6** birlik kuzatildi.

**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Karmana tumani

22,5

Konimex tumani

28,0

Tomdi tumani

45,5

Navoiy shahri

25,6

G'ozg'on shahri

43,6

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

354	Navoiy sh.	369
319	Karmana t.	199
278	Qiziltepa t.	186
221	Navbahor t.	172
272	Xatirchi t.	148
142	Konimex t.	139
167	Zarafshon sh.	102
145	Nurota t.	76
86	Tomdi t.	65
166	Uchquduq t.	58
51	G'ozg'on sh.	44

2024- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Navoiy shahri – **23,7** %, Karmana tumani – **12,8** %, Qiziltepa tumani – **11,9** %, Navbahor tumani – **11,0** %, Xatirchi tumani – **9,5** %, Konimex tumani – **8,9** % hamda Zarafshon shahri – **6,6** % hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar va shahar, birlikda





2024- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **497 ta**, sanoatda **328 ta** yangidan tashkil etilgan.

Navoiy viloyatining tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahrida **369 ta**, Karmana tumanida **199 ta** hamda Qiziltepa tumanida **186 ta** yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami **11 028** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **3 845** (yoki **34,9 %**) ta, sanoat sohasida – **2 406** (yoki **21,8 %**) ta, xizmatlar sohasida – **2 399** (yoki **21,7 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **1 887** (yoki **17,1 %**) ta va qurilish sohasida **491** (yoki **4,5 %**) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023- y. ■ 2024- y.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi , % da

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **21,5** % ni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **3,1** % ga kamaygan.




2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,3** % ni, chakana savdoda **93,2** % ni, yo'lovchi tashishda **86,9** % ni, yo'lovchi aylanmasida **86,9** % ni, qurilishda **60,6** % ni, xizmatda **55,8** % tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda



Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati

Hajmi, mlrd. so'mda




Ulushi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 257,5** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (**1 273,9** mlrd. so'm), Navoiy shahri (**1 092,9** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**792,3** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**542,3** mlrd. so'm) va Zarafshon shahri (**433,5** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Tomdi tumanida (**41,5** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, mlrd. so'mda**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

## 2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da

2024- yilning yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 8,3 % ni tashkil etdi.



## 2024- yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Zarafshon shahri, G'ozg'on shahri, Uchquduq tumani va Tomdi tumanlari (**100,0** %), Qiziltepa tumani (**99,7** %), Nurota tumani (**89,7** %), Xatirchi tumani (**54,7** %), Navbahor tumani (**49,3** %), Konimex tumani (**45,3** %), Karmana tumani (**22,4** %) va Navoiy shahri (**2,0** %) tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida tuman va shahar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

G'ozg'on sh	15,2	100,0
Karmana	331,4	94,8
Xatirchi	282,1	91,3
Navbahor	162,5	85,0
Zarafshon sh	328,2	84,7
Konimex	78,9	80,6
Qiziltepa	524,1	76,6
Navoiy sh	524,3	74,1
Uchquduq	80,2	66,2
Nurota	176,7	55,8
Tomdi	15,3	1,6

hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2 518,9** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **60,6** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **93,0** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahrida (**524,3** mlrd. Qiziltepa tumanida (**524,1** mlrd. so'm), Karmana tumani (**331,4** mlrd. Zarafshon shahri (**328,2** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**282,1** mlrd. so'm), Nurota tumani (**176,7** mlrd. so'm) hamda Navbahor tumanida (**162,5** mlrd. so'm) da qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


## 2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **7 746,4** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **45,9 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **114,6 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Navoiy shahri (**2 810,1** mlrd. so'm), Tomdi tumani (**1 801,6** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (**991,8** mlrd. so'm), Karmana tumani (**497,0** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**359,2** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**353,1** mlrd. so'm), Nurota tumani (**296,0** mlrd. so'm) hamda Navbahor tumani (**214,2** mlrd. so'm) da qayd etildi.

## 2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **7 744,8** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **98,3** % ini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **103,5** % ni tashkil qildi.

**2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Xatirchi tumani (**2 221,8** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**1 512,2** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**1 229,8** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**1 096,6** mlrd. so‘m), Nurota tumani (**541,7** mlrd. so‘m) hamda Konimex tumani (**387,6** mlrd. so‘m) da qayd etildi.


**2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi**

Zarafshon sh	39,8	100,0
Qiziltepa	1 512,2	100,0
Tomdi	366,1	100,0
Uchquduq	244,8	100,0
Navbahor	1 229,8	99,6
Navoiy sh	44,5	99,5
Xatirchi	2 221,8	98,8
Karmana	1 096,6	98,4
Nurota	541,7	97,6
G‘ozg‘on sh	59,9	94,1
Konimex	387,6	84,8

hajmi, mlrd. so‘mda


ulushi, % da

**2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **5 418,1** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,2** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **108,1** % ni tashkil qildi.

## 2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Karmana	1 003,1	100,0
Uchquduq t.	289,0	99,6
Tomdi	51,2	99,2
Qiziltepa	635,7	98,3
Nurota	286,0	97,8
Xatirchi	695,7	97,7
G'ozg'on sh	5,3	97,5
Konimex	175,0	96,0
Navbahor	330,4	90,7
Zarafshon sh	543,7	88,7
Navoiy sh	1 402,8	84,8


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**1 402,8** mlrd. so'm), Karmana tumani (**1 003,1** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**695,7** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**635,7** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (**543,7** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**330,4** mlrd. so'm) Uchquduq tumani (**289,0** mlrd. so'm) va Nurota tumani (**286,0** mlrd. so'm) ga to'g'ri keldi.

## 2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Navoiy sh. 958,3

Karmana t. 564,8

Zarafshon sh. 432,2

Qiziltepa t. 431,2

Xatirchi t. 368,4

Navbahor t. 267,5

Nurota t. 214,6

Uchquduq t. 171,9

Konimex t. 120,2

Tomdi t. 58,3

G'ozg'on sh. 11,1

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 598,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **55,8 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **112,2 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (**958,3** mlrd. so'm), Karmana tumani (**564,8** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (**432,2** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**431,2** mlrd. so'm), Xatirchi tumani, (**368,4** mlrd. so'm) Navbahor tumani (**267,5** mlrd so'm) va Nurota tumani (**214,6** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasi turlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi va ulushi  
(2024-yil yanvar-iyun)

1 750,1	Savdo xizmatlari	95,5
872,7	Transport xizmatlari	91,9
276,5	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	64,9
181,6	Shaxsiy xizmatlar	99,9
92,9	Boshqa xizmatlar	36,9
90,9	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	97,9
85,8	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	65,8
77,3	Ijara xizmatlar	98,3
56,5	Me'morchilik, muhandislik izlanishlar texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizma	18,6
44,7	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	53,7
37,1	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	14,7
25,6	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	9,7
6,8	Moliyaviy xizmatlar	0,4

*Hajmi, mln. so'mda*

*Ulushi, foizda*

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi shaxsiy xizmatlarda – **99,9 % (181,6 mln. so'm)**, Ijara xizmatlarida – **98,3 % (77,3 mln. so'm)**, Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida – **97,9 % (90,9 mln. so'm)** hamda savdo xizmatlarida **95,5 % (1 750,1 mln. so'm)**ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,4 % (6,8 mln. so'm)** kuzatildi.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.



Ulushi, % da




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Karmana	12 976,4	29,2
Qiziltepa	5 565,2	99,1
Navoiy sh	5 060,7	1,3
Xatirchi	2 638,6	7,2
Navbahor	2 238,0	18,0
G'ozg'on sh	1 476,8	100,0
Konimex	1 017,5	100,0
Uchquduq	879,2	99,6
Zarafshon sh	821,0	98,7
Nurota	716,5	24,3
Tomdi	403,6	100,0

hajmi, ming AQSH dollar


ulushi, % da

2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **33 846,0** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **6,7 %** ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi G'ozg'on shahrida, Tomdi tumanida, Konimex tumanida – **100,0 %**, Uchquduq tumanida – **99,6 %**, Qiziltepa tumanida – **99,1 %**, Zarafshon shahrida – **98,7 %**, Karmana tumanida – **29,2 %**, Nurota tumanida – **24,3 %**, Navbahor tumanida – **18,0 %** va Xatirchi tumanida – **7,2 %** ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – **1,3 %** ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **81 911,7 ming** AQSH dollarini yoki jami importning **36,5 %** ini tashkil etdi.

**2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida, Tomdi va Uchquduq tumanlarida -**100,0 %**, Qiziltepa tumanida - **94,8 %**, Nurota tumanida - **89,7 %**, Konimex tumanida - **88,3 %**, Zarafshon shahrida- **85,9 %**, Navbahor tumanida - **51,6 %** hamda Xatirchi tumanida **51,3 %** ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



7,8 %

Yuk  
tashishda


2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **7,8 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **95,9 %** ni tashkil qildi.



37,8 %

Yuk  
aylanmasida


2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **37,8 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **98,9 %** ni tashkil qildi.



86,9 %

Yo'lovchi  
tashishda

2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,9 %** ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,6 %** ni tashkil qildi.




86,9 %

Yo'lovchi  
aylanmasida

2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,9 %** ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,2 %** ni tashkil qildi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 952 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 474 (49,8%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 452 (47,5 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 26 (2,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 46,5 % (443 ta), xizmatlar sohasida – 23,3 % (222 ta), sanoatda – 15,8 % (150 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,4 % (80 ta), qurilishda – 6,0 % (57 ta) ni tashkil etdi.

2024- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2024- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi

229	Navoiy sh.	24,1
146	Qiziltepa t.	15,3
142	Karmana t.	14,9
109	Xatirchi t.	11,4
83	Navbahor t.	8,7
70	Nurota.t	7,4
60	Zarafshon sh.	6,3
53	Konimex.t	5,6
22	G'ozg'on sh.	2,3
20	Tomdi t.	2,1
18	Uchquduq t.	1,9


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahri (229 ta), Qiziltepa tumani (146 ta), Karmana tumani (142 ta) va Xatirchi tumani (109 ta) hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **876** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyun oylariga kelib esa **474** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **402** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **554** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyuniga **452** ta yoki **102** taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **43** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-iyun oylariga kelib **26** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **17** taga kamaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **788** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyun oylarida kelib esa **446** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **342** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **470** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyun oylarida kelib esa **423** taga yetgan yoki **47** taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **20** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida kelib, bu ko'rsatkich **28** tani tashkil etib, 8 taga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **59,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyun oylarida kelib esa **49,8** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **9,7** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **37,6** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyuniga **47,5** % yoki **9,9** % ga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **2,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich **2,7** % ga yetgan yoki **0,2** % ga kamaygan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **61,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyun oylarida kelib esa **46,8** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **14,8** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **36,8** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyun oylarida **44,4** % yoki **7,6** % ga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylarida **1,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida kelib, bu ko'rsatkich **2,9** % yoki **1,3** % ga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 60,0 % ni savdo sohasida - 49,6 % ni, sanoat sohasida 49,3 % ni, xizmatlar sohasida - 47,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida – 50,9 % ni, xizmatlar sohasida – 49,2 % ni, sanoat sohasida – 48,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 3,8 % ni, savdo sohasida – 2,8 % ni, sanoat sohasida – 2,7 % ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoat sohasida – **56,0** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **55,0** % ni, qurilish sohasida – **52,6** % ni va xizmatlar sohasida – **51,7** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida - **47,4** % ni, xizmatlar sohasida – **47,1** % va savdo sohasida – **46,8** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida – **1,6** % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **1,3** % ni va sanoat sohasida – **1,3** % tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	39,8	51,6	3,5
<b>Band bo'lganlar soni</b>	19,4	74,3	1,3
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	27,3	65,5	1,8
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	22,4	67,9	4,5
<b>Raqobat muhiti</b>	35,5	57,9	1,1

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	43,9	54,7	1,4
<b>Band bo'lganlar soni</b>	20,9	77,9	1,2
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	29,1	69,3	1,6
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	24,9	70,2	4,9
<b>Raqobat muhiti</b>	38,3	60,6	1,1


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli